

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

**UDK: 635:631.52**

**NOAN‘ANA VIY SABZAVOT EKINI ROKAMBOLNING ISTIQBOLLI  
KLONLARINI O‘RGANISH NATIJALARI**

**Aramov Muzaffar Xoshimovich**

TDMAU, q.x.f.d., professor, E-mail: aramov-muzaffar@mail.ru

**Salomov Baxodir Salomovich**

Termiz pedagogika instituti, “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası Katta o‘qituvchisi,  
q.x.f.d (DSc), E-mail: salomov74@inbox.ru

**Qarshiyeva Saodat Xurramovna**

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-  
tajriba stansiyasi, laboratoriya mudiri  
e-mail: qarshiyeva.saodat@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi sabzavot ekini rokambolning respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitiga mos, o‘rtapishar, hosildorligi yuqori, saqlashga yaroqli va eksportbop klonlarini baholash asosida olib borilgan seleksiya ishlari natijalari yoritilgan.

**Abstract.** In the state, the results of selection work carried out on the basis of only clones of the new vegetable crop Rocambole, which are suitable for various soil and climatic conditions of our republic, mid-season, high-yielding varieties suitable for storage and export were obtained.

**Аннотация.** В статье представлены результаты селекционной работы, проведенной на основе оценки клонов новой овощной культуры рокамболь, которые пригодны для различных почвенно-климатических условий нашей республики, являются среднеспелыми, высокоурожайными, пригодными для хранения и экспорта.

**Kalit so‘zlar:** nav, selekstiya, rokambol, klon, o‘simlik, piyozbosh, piyozcha, soxta poya, hosildorlik, sarimsoq.

**Key words:** variety, selection, rocambole, clone, plant, onion, bulb, false stem, yield, garlic.

**Ключевые слова:** сорт, селекция, рокамболь, клон, растение, лук, луковица, ложный стебель, урожайность, чеснок.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

**Kirish.** Rokambol (*Allium scorodoprasum* L.) *Allium* L. avlodi, Alliaceae J.K. Agardh oilasi, *Allium* Wendelbo turkumiga kiruvchi sabzavot turi hisoblanadi.

Rokambol O‘rta Yer dengizi mamlakatlari – Ispaniya, Turstiya, Grestiya, Misr va Marokkoda juda ommalashgan sabzavot ekini hisoblanadi. Rokambol bir vaqtning o‘zida ham piyoz, ham sarimsoqning ta‘mini berib, ko‘pgina ovqatlarda piyoz va sarimsoq o‘rnida ishlatiladi. Rokambol piyoz va sarimsoq belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘tsimon o‘simlik [6].

So‘nggi yillarda jahon qishloq xo‘jaligida yangi sarimsoq turi – rokambol o‘simligini introduktsiyasi bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Rokambol dunyo aholisining yil davomida ziravor mahsulot sifatida, qayta ishlashda va kolbasa mahsulotlari tayyorlashda sevib iste‘mol qiladigan qadimgi oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda mana shu qimmatli sabzavot ekinini yetishtirish ham ichki bozorga, ham eksportga chiqarish imkoniyatlari juda katta. Ayniqsa respublikamizning janubiy viloyatlarida uni kuz-qish mavsumida yetishtirib undan yuqori hosil olish mumkin. Eng muhimi rokambol ekilgan maydonlarda asosiy ekin sifatida paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish mumkin. Shu asosda rokambol piyozboshining sifati yuqori bo‘lgan, eksport uchun mos bo‘lgan klonlarni ajratish, yaratilgan yangi klonlarning tanlov sinovini amalga oshirish, rokambolning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish borasida ilmiy-izlanishlar olib bormoqdamiz.

**Materiallar va uslublar.** Rokambolning istiqbolli klonlarini o‘rganish uchun dala tajribalari quyidagi uslublar asosida olib borildi:

- методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте (М., ВНИИССОК, 1987. Часть 1);
- руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (М., «Колос», 1982);

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

- ОСТ- 4671 - 78. «Сборник нормативных документов на семена и посадочный материал овощных культур» (М., ВНИИССОК, 1997).

- методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур (М., 1975. Часть 4);

- методика полевого опыта (Доспехов Б.А.,1985).

- Tadqiqotlar ob’ekti bo‘lib, rokambolning 40 dan ortiq klonlari xizmat qildi. Hisob bo‘lmachasi maydoni 0,7 m<sup>2</sup>. Bo‘lmachadagi o‘simliklar soni 5-7 ta. Tajriba qaytariqsiz olib borildi. Piyozechalar sentyabr oyining birinchi o‘n kunligida 40+15x10 sm sxemada ekildi. Amal davrida kuzatuv, o‘lchov ishlari olib borildi: ekish, sana; unib chiqa boshlashi, sana; gul novda paydo bo‘lishi, sana; gul novdaning yoppasiga paydo bo‘lishi, sana; barglarning yotib qolishi, sana; hosilni yig‘ish, sana.

Tadqiqotlar jarayonida yakka va guruhli tanlash asosida 60 tadan ortiq klonlar ajratib olindi.

**Natijalar va uslublar.** Rokambol piyozechalari 2024 yilda sentyabrning birinchi o‘n kunligida ochiq dalaga o‘tkazildi. Rokambol klonlarining rivojlanish davrlarining va amal davrining davomiyligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Ekishdan unib chiqishgacha bo‘lgan davr rokambol klonlarida o‘rtacha 18-28 kunni tashkil etdi. O‘suv davri, ya’ni piyozechalar unib chiqqandan piyozboshlarning texnik pishib yetilishigacha K-3, K-11, K-13, K-18, K-22, K-23 va K-26 klonlarida 238-240 kunni tashkil etib, qiyosiy navga nisbatan 5-7 kun ertapishar ekanligi aniqlandi. K-7 va K-24 klonlarining amal davri 246 kunni tashkil etib, qiyosiy navga nisbatan 1 kun kechpishar bo‘ldi. Qiyosiy Baraka navida amal davri 245 kunni tashkil etdi.

### 1-jadval

#### Rokambol klonlari rivojlanish fazalari vegetatsiya davrining davomiyligi, kun

Nav nomi	Ekish-yoppasi-ga unib chiqish, kun	Yoppasiga unib chiqqandan, kun				Amal davri, kun
		Gul novdalar chiqarish-gacha	Poyalar-ning sarg‘ayishigacha	Piyozbosh-ning texnik pishishi gacha	Hosilni yig‘ib olish-gacha	

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Baraka q.n	19	194	233	245	248	245
K-1	18	190	230	243	245	243
K-2	18	192	232	243	246	243
K-3	19	192	231	240	242	240
K-4	20	193	231	241	242	241
K-5	21	194	228	243	246	243
K-6	19	193	230	246	248	244
K-7	19	194	230	243	246	243
K-8	17	193	323	241	242	241
K-9	19	195	231	242	244	242
K-10	19	194	232	242	245	242
K-11	28	194	232	240	242	240
K-12	27	193	234	241	243	241
K-13	28	194	231	240	244	240
K-14	20	194	231	242	245	242
K-15	20	195	234	241	244	241
K-16	19	196	235	241	243	241
K-17	19	194	232	242	245	242
K-18	18	194	232	238	246	238
K-19	19	195	233	244	245	244
K-20	18	196	234	240	243	240
K-21	18	194	225	245	247	245
K-22	19	196	234	240	243	240
K-23	20	194	234	239	244	240
K-24	21	195	235	246	248	246
K-25	19	195	236	244	245	244
K-26	20	196	232	240	245	240
K-27	19	194	234	241	244	241
K-28	20	194	236	242	246	242
K-29	18	197	231	244	246	244
K-30	18	194	231	245	247	245
K-31	19	194	233	245	247	245
K-32	19	195	237	242	244	242
K-33	20	196	236	242	245	242
K-34	20	194	231	243	246	243
K-35	18	195	234	244	247	244

Rokambol klonlarining morfobiologik tavsifi 2-jadvalda keltirilgan. Tadqiqotlarimizda soxta poya balandligi gul novda bilan qo‘shib hisoblanganda

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Baraka navida 100,5 sm, K-3, K-5, K-9, K-11, K-14, K-15, K-17, K-21, K-23, K-27, K-29 va K-33 klonlarida 92,4-99,7 sm ni tashkil etib qiyosiy navga nisbatan 0,3-8,1 sm ga past bo‘yli bo‘ldi. Qolgan o‘rganilgan klonlarning o‘simlik bo‘yi 102,1-108,4 sm bo‘lib, qiyosi navga nisbatan 1,6-7,9 sm ga baland ekanligi aniqlandi.



**1-rasm. Rokambol o‘simligining ko‘rinishi**



**2-rasm. Rokambol to‘pguli**

Baraka navida gul novda uzunligi 42,3 sm ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich K-3, K-5, K-10, K-15, K-20, K-25, K-27 va K-29 klonlarda o‘rtacha 36,4-41,2 sm ni tashkil etib, qiyosiy navga nisbatan 1,1-5,9 sm ga past bo‘lganligi kuzatildi.

### 2-jadval

#### Rokambol klonlarining morfobiologik belgilari, 2024-2025 y.y.

Nav nomi	O‘simlik bo‘yi, sm	Shu jumladan gul novda bo‘yi, sm	Barg		
			soni, dona	uzunligi, sm	eni, sm
Baraka q.n	100,5	42,3	9,0	45,0	3,0
K-1	106,0	46,4	8,0	44,4	5,0
K-2	105,4	48,2	9,0	42,3	4,7
K-3	99,7	41,7	9,0	37,5	4,5
K-4	103,1	46,0	9,0	46,2	4,3
K-5	95,4	38,8	7,0	38,5	3,7
K-6	104,6	47,5	8,0	46,0	5,2
K-7	103,0	49,2	8,0	45,4	5,0
K-8	108,4	46,4	9,0	47,6	5,1
K-9	92,4	48,4	7,0	38,5	4,8

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

K-10	105,1	35,5	8,0	44,2	4,6
K-11	98,6	45,4	7,0	39,5	4,5
K-12	104,7	48,4	9,0	43,4	4,7
K-13	106,4	42,7	9,0	45,4	4,2
K-14	94,7	46,4	7,0	43,3	3,4
K-15	99,5	37,8	8,0	36,5	3,6
K-16	102,1	49,5	9,0	47,2	5,1
K-17	97,4	47,4	7,0	40,5	5,3
K-18	106,6	46,6	9,0	45,4	5,2
K-19	104,0	46,4	8,0	45,7	4,6
K-20	108,4	36,4	9,0	46,8	5,2
K-21	96,4	47,5	8,0	37,5	3,5
K-22	104,1	44,4	9,0	48,4	4,9
K-23	97,7	47,7	9,0	39,7	3,7
K-24	108,2	46,5	9,0	47,2	5,2
K-25	106,3	36,5	7,0	48,5	4,5
K-26	105,4	48,6	8,0	44,4	4,7
K-27	98,7	41,2	8,0	35,4	3,8
K-28	107,1	47,4	9,0	48,6	5,4
K-29	95,6	37,4	7,0	36,5	3,8
K-30	104,7	45,5	8,0	45,2	4,7
K-31	107,0	47,4	7,0	40,3	5,2
K-32	105,4	46,4	9,0	45,4	5,4
K-33	98,5	41,6	9,0	46,7	3,8
K-34	105,4	47,5	7,0	43,6	5,3
K-35	106,6	48,7	8,0	36,7	5,5

Barg soni, uzunligi bo‘yicha klonlar o‘rtasida keskin farq kuzatilmadi va uning soni 8,0-9,0 donani, uzunligi esa 35,4-48,6 sm ni tashkil etdi. Barg plastinkasining eni qiyosiy navda 3,0 sm ni, klonlarda esa 3,4-5,5 sm ni tashkil etib, Baraka naviga nisbatan 0,4-2,5 sm ga yirik bo‘ldi.

O‘rganilgan klonlar va qiyosiy navda piyozbosh indeksi 0,7-0,9 tashkil etib piyozbosh shakli yassi-yumaloq ekanligi aniqlandi,3-jadval.

**3-jadval**

**Rokambol klonlarining piyozbosh va piyozchalar tavsifi, 2024-2025 y.y.**

Nav nomi	Piyozbosh				Piyozchalar	
	balandligi, h, sm	diametri, d, sm	indeks	vazni,g	soni, dona	vazni, g

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Baraka q.n	4,0	5,3	0,8	103,2	7,0	14,7
K-1	4,9	6,2	0,8	106,4	6,0	17,7
K-2	4,5	6,0	0,8	100,2	5,0	20,0
K-3	4,1	5,7	0,7	124,4	6,0	20,7
K-4	4,7	6,4	0,7	107,6	5,0	21,5
K-5	4,2	5,5	0,8	99,7	5,0	19,9
K-6	4,0	5,9	0,7	76,4	5,0	15,2
K-7	5,1	6,3	0,8	104,2	5,0	20,2
K-8	4,9	6,6	0,7	104,4	6,0	17,4
K-9	5,3	5,7	0,9	87,6	5,0	17,5
K-10	4,4	6,6	0,7	99,7	5,0	19,9
K-11	4,9	5,7	0,8	66,7	4,0	16,6
K-12	4,0	5,8	0,7	66,7	6,0	11,1
K-13	5,1	6,4	0,8	106,3	5,0	20,4
K-14	4,8	5,6	0,8	97,6	4,0	24,4
K-15	4,6	6,2	0,7	111,5	5,0	22,3
K-16	5,0	6,1	0,8	109,4	4,0	27,3
K-17	4,7	5,4	0,9	99,7	5,0	19,9
K-18	5,1	6,9	0,7	129,3	6,0	21,5
K-19	5,1	5,9	0,8	127,4	6,0	21,7
K-20	4,4	5,7	0,8	126,4	6,0	21,0
K-21	4,7	6,0	0,8	104,4	5,0	20,8
K-22	5,0	6,5	0,8	87,6	6,0	14,6
K-23	5,1	5,6	0,9	129,7	6,0	21,6
K-24	5,2	5,9	0,9	126,3	5,0	25,3
K-25	4,9	5,9	0,8	124,3	5,0	24,8
K-26	5,1	5,6	0,9	76,4	4,0	19,1
K-27	5,3	6,1	0,8	97,6	4,0	24,4
K-28	4,9	5,6	0,9	121,5	5,0	24,3
K-29	5,4	5,7	0,9	105,6	7,0	15,8
K-30	4,6	6,2	0,7	126,9	6,0	21,5
K-31	4,7	6,3	0,7	87,5	4,0	21,8
K-32	5,0	6,0	0,8	100,6	6,0	16,7
K-33	4,0	5,2	0,8	69,7	5,0	13,9
K-34	4,9	5,9	0,8	58,0	4,0	16,3
K-35	4,7	5,8	0,8	104,3	5,0	20,8

K-2, K-5, K-6, K-9, K-10, K-11, K-12, K-14, K-17, K-22, K-26, K-27, K-31, K-32, K-33 va K-34 klonlarida piyozbosh vazni 58,0-100,6 g tashkil etdi va qiyosiy

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

navga nisbatan 2,6-45,2 g ga kam bo‘ldi. Piyozbosh vazni yuqori bo‘lgan klonlar sifatida K-3, K-18, K-19, K-20, K-23, K-24, K-25, K-28 va K-30 kabilar ajratilib, ularning vazni 121,5-129,7 g ni tashkil etdi va qiyosiy navga nisbatan 18,3-26,5 grammga yuqori bo‘ldi. Qiyosiy navda bu ko‘rsatkich 103,2 gramm ekanligi aniqlandi.



**3-rasm. Rokambolning generativ organlari to‘liq shakllangan poyasi**



**4-rasm. Rokambol mevasi**


Eng muhim belgilardan yana biri-piyozboshdagi piyozchalar soni hisoblanadi. Piyozboshda piyozchalar sonining kam bo‘lishi va ularning katta bo‘lishi yangi navlarga qo‘yiladigan talablardan biridir. Piyozboshdagi piyozchalar soni Baraka navida 7 ta ni tashkil etadi. Klonlarda ushbu ko‘rsatkich 4-6 ta bo‘lganligi kuzatildi. Bitta piyozchanning o‘rtacha vazni qiyosiy navda 14,7 g, K-22 va K-33 klonlarida 13,9-14,6 g ekanligi aniqlandi.

O‘rganilgan klonlar hosildorligi va hosil sifati jihatidan turli-tuman ekanligi ma’lum bo‘ldi va 33,2-42,1 t/ga ni tashkil etdi, 5-rasm.

Eng yuqori umumiy hosildorlik K-3, K-18, K-19, K-20, K-23, K-24, K-25 va K-30 klonlarida aniqlandi. Ularda hosildorlik 36,9-42,1 t/ga bo‘lib, standartga nisbatan 1,1-15,3 % yuqori hosil berdi. O‘rganilayotgan K-15 va K-21 klonlari hosildorlik ko‘rsatkichlari eng past bo‘ldi. Ular qiyosiy navga nisbatan 4,7-9,0 % kam hosil berdi.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani



**5-rasm.** Istiqbolli klonlarning hosildorlik ko‘rsatkichlari, 2024-2025 y.y.

Rokambolning ildiz sistemasida va quruq po‘sti qobig‘i oralarida 10-25 ta gacha qo‘shimcha o‘lchamlari juda kichik piyozchalar hosil qiladi. Bu piyozchalar sarimsoqning havo piyozchalariga (vozdushnye bulbochki) o‘xshab ketadi va ekilganda birinchi yili ko‘p hollarda bir butun piyozboshlar hosil qiladi. Rokambol piyozboshlari saqlashga yaroqliligi bilan ham ajralib turadi. Uning piyozboshlari hosil yig‘ilgandan keyingi yili fevral-mart oylarigacha yaxshi saqlanishi kuzatildi.

Quyida 2024-2025 yillar tadqiqot natijasida istiqbolli deb topilgan klonlar tavsifini keltiramiz:

**K-3 kloni.** Piyozboshlar vazni 124,4 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 20,7.

**K-18 kloni.** Piyozboshlar vazni 129,3 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 21,5.

**K-19 kloni.** Piyozboshlar vazni 127,4 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 21,7.

**K-20 kloni.** Piyozboshlar vazni 126,4 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 21,0.

**K-23 kloni.** Piyozboshlar vazni 129,7 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 21,6.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

**K-24 kloni.** Piyozboshlar vazni 126,3 g, piyozchalar soni 5 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 25,3.

**K-25 kloni.** Piyozboshlar vazni 124,3 g, piyozchalar soni 5 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 24,8.

**K-30 kloni.** Piyozboshlar vazni 126,9 g, piyozchalar soni 6 dona, piyozchalarning o‘rtacha vazni 21,5.

Tadqiqotlar nihoyasida eng istiqbolli klonlar tanlab olinib, keyingi bosqichga avlodlarni o‘rganish uchun tanlash ishlarining piyozbosh vazniga, piyozchalar soni va vazniga ta’sirini o‘rganish uchun sinash bog’chasiga 2025 yil sentyabr oyining birinchi o‘n kunligida ekiladi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston sharoitida yangi bo‘lgan sabzavot ekini rokambolning istiqbolli klonlari ajratildi. Piyozboshlari va piyozchalari katta, umumiy hosildorligi yuqori bo‘lgan K-3, K-18, K-19, K-20, K-23, K-24, K-25, K-30 klonlari ajratildi. Ushbu klonlar yuqori hosilli rokambol navlarini yaratishda istiqbolli manba bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М., 1985. -351 с.
3. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур Москва., 1975. Выр. 4. -С. 49-50.
4. Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте. Москва, ВНИИССОК, 1987. Часть 1. - S. 27-32.
5. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari Davlat reestri, Toshkent., 2021.-51 b.
6. Пивоваров В.Ф. Чеснок. Овощи России. // ГНУ ВНИИССОК. Москва., 2006 -С. 200-203.